

MAVZU:

O‘zbekzabon media olamida tobora jurnalist va bloggerlar soni oshib bormoqda. Faollar bu ikki toifaning o‘rtasida farq mavjudligini ta’kidlashadi. Ayrimlar bloggerlik jamiyat uchun xavfli deb hisoblashadi.

KIRISH

(Esse matnining mazmunini saqlab qolib, so‘zlarning sinonimlariga o‘zgartirgan holatda ko‘chirish)

Kundan kunga jadallashib borayotgan axborotlar davrida yashar ekanmiz , yangilikning qanchalik to‘g‘ri va ishonchli ekani juda muhim. Media olamida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan blogger va jurnalistlar faoliyati bir-biridan farq qiladimi ? Bloggerlar jamiyat uchun xavfli deguvchilar fikri qanchalik to‘g‘ri?

ASOSIY QISM**I**

(Mavzu yuzasidan birinchi tomon fikrini yoritish hamda dalillash)

Asosiy qonunimizning 33-moddasida “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega” deyilgan. Darhaqiqat, “to‘rtinchi hokimiyat” deya atalgan AOV vakillariga yurtimizda ijod erkinligi berilgan. Oxirgi yillarda xalqimizni qiynayotgan muammolar ochiqchasiga televideniye, radio, matbuotda keng yoritilmoqda. Bu borada jurnalistlarning o‘rni beqiyos. Aslida, jurnalistika sohasi mashaqqat va mehnatga asoslanadi. Jurnalistlar bu sohani egallash uchun oliy ta’limda o‘qishadi, ustozlardan yo‘l-yo‘riq olishadi. Bir necha yil tajriba oshirib, keyin faoliyatini boshlashadi. Ularning faoliyati qonun bilan himoyalanaadi. Nutqidan tortib o‘zini tutishi, kiyinishigacha nazoratga olingan. Hozirda davlat va nodavlat telekanallarida mehnat qilayotgan jurnalistlar informatsion dasturlardan tortib turli xil shularda ham aynan fuqarolarimizni qiynab kelayotgan muammolarga yechim topishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishgan. Ammo ba’zida masalalar o‘z yechimini topishi uchun oylab vaqt kerak bo‘lmoqda. Bu esa xalqimizning jurnalistlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotib qo‘ymoqda. “Mening yurtim” kanali jurnalistlari Sarvar Bahodirov va Amirxon Umarov faoliyati hozirda tomoshabinlar e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

II

(Mavzu yuzasidan ikkinchi tomon fikrini yoritish hamda dalillash)

Bugungi kunda axborotlar maydonida blogerlar ham o'z o'rniga ega bo'lishmoqda. “Blogger” so'zi inglizcha “web-log” so'zidan olingan bo'lib “internet sahifasi” ma'nosini anglatadi. Hozirda blogerlar jurnalistlar o'rnini bosa olyapti deguvchilar ham ko'p. Ularning fikricha, birinchidan, blogerlar turli sohalar bo'yicha o'z g'oyalarini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilmoqdalar. Masalan, qo'g'irchoq yasovchi Mohidil Tursunova, kashtachi Mohira Sultonova, hayvonlar uchun boshpana ochgan Iroda Masharipovalar fikrimiz isboti. Ikkinchidan, blogerlar fuqarolar tomonidan aytilgan shikoyatlarni tez orada internet tarmoqlarida yoritadi. Shu tufayli ham ko'p dardmand hamyurtlarimiz dardlariga shifo topishdi. Uy-joysiz insonlar vatanli bo'ldi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ilmsiz, odob nimaligini bilmaydigan blogerlar ham borki, jamiyat yurish-turish qoidalariga amal qilishmaydi. Bu holat esa yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etmoqda.

III

(Mavjud vaziyat yuzasidan esse yozuvchining o'z shaxsiy qarashlarini yoritish hamda dalillash)

Mening fikrimcha, blogerlar jamiyat uchun xavf tug'dirmaydi. Ammo jamiyatda ularning harakatini tartibga soluvchi tizim joriy etilishi kerak. Axloq normalariga amal qilmagan blogerlar faoliyati cheklab qo'yilishi lozim. Aks holda ularga nisbatan xalq orasida hurmat ham, ishonch ham yo'qoladi.

XULOSA

(Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar yuzasidan umumiy xulosa berish)

Xulosa qilib aytganda, blogerlar o'z ustida ishlasalar, badiiy asarlar mutolasi bilan shug'ullanib ilm o'rganishsa, davlatimiz rivojiga hissa qo'shadigan kasb egalariga aylanishadi. “Suv ekin bilan, inson tarbiya bilan o'sadi”, deganlaridek, har qanday yuksak ma'naviyat ortida, avvalambor, sof axloq turadi.